JIZZAX VILOYATI ZOMIN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 29 - sentabr 257-3-48-Q/23 Zomin tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-avgustdagi PQ-289-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-avgustdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli va viloyat hokimining 2023-yil 13-sentyabrdagi 472-3-0-Q/23-conli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-avgustdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli va viloyat hokimining 2023-yil 13-sentyabrdagi 472-3-0-Q/23-conli qarorlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Quyidagilar:

2023-2024-yillarda O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va uning hududiy bo‘limlari maqom ansambllarining mahalliy gastrol safarlarini tashkil etish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2023-2024-yillarda O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va uning hududiy bo‘limlari maqom ansambllarining korxona va tashkilotlarga gastrol safarlarini tashkil etish rejasi 2-ilovaga muvofiq;

2023-2025-yillarda O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va uning hududiy bo‘limlari maqom ansambllarining xorijiy gastrol safarlarini tashkil etish rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qlinsin.

shuningdek, gastrol safarlarini tashkil etish rejalarida nazarda tutilgan tadbirlarni o‘tkazish joyi, vaqti, ishtirok etadigan ijodkorlar haqida ommaviy axborot vositalari va axborot tarqatishning boshqa manbalari orqali, shu jumladan, tadbir o‘tkaziladigan hududlar aholisini oldindan xabardor qilish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

3.Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Berdimurodov) mazkur qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

4.Tuman madaniyat bo‘limi (S.Xakimov) mazkur qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan, uzoq muddat talab etadigan bandlari muddatidan oldin ta’minlash choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Anvarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**